

ADIBNING SO‘NGI KUNLARI VIDOLASHUV

Qoryog‘diyev Jo‘rabek Bobir o‘g‘li

(Toshkent davlat transport universiteti talabasi)

Annotatsiya: *Maqsud Shayxzoda hayotining so‘ngi kunlari uning ayoli hamda vafoti haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishamiz.*

Abstrakt: *The last days of the life of Maqsud Shaykhzadeh we will get acquainted with the information about his wife and death.*

Аннотация: *Последние дни жизни Мақсуда Шейхзаде с информацией о его жене, а также о его смерти.*

Kalit so‘zlar: *Shoir, Muhsin Zokirov, Pesa, Abu Rayhon Beruniy, uch raqamli son, Shayxzoda Mirzo Ulug‘bek, Shoira, Zulfiya, Suyima G‘anieva, qora libos.*

Keywords: *Poet, Muhsin Zakirov, Pesa, Abu Rayhon Beruniy, number three, Shaykhzadeh Mirzo Ulugbek, poet, Zulfiya, Suyima Ganieva, black dress.*

Ключевые слова: *Поэт, Мухсин Закиров, Песа, Абу Райхан Беруни, номер три, шейхзада Мирза Улугбек, поэт, Зулфия, суйима Ганиева, черное платье.*

Shoir ijodining targ‘ibotchilaridan biri Muhsin Zokirov ikki-uch kishi bo‘lib, ustozni ziyorat qilishdi. Shayxzoda boshqa shogirdlariga qaraganda qo‘lyozmalarini ko‘proq shu kimsaga ishongani uchun, suhbat orasida, mo‘jaz stol ustida turgan ikkita katta daftarni ko‘rsatib, dedi: “Pesa ham qoralamada qiyomiga yetdi, desa bo‘ladi. Yigirma ikki ,yigirma uchinchi fevral kunlarida uyga qaytmoqchiman. Bir haftacha xordiq olib, so‘ngra uni oqqa ko‘chirish niyatidaman. Bilasiz-ku, men juda tez ishlayman. Agar tangri hazratlari imkon bersalar, uzog‘i bilan aprel oyining oxirlarida mashinkadan chiqadi. To‘laxo‘jaev shoshiltiryapti, bayram rejalariga kirgan, deb. Spektakl ustidagi ishni boshlab yuborishlari kerak ekan. Agar Abu Rayhon Beruniy hazratlari haqidagi asarni egalariga eson-omon topshirsam, so‘ng navbat Bobur Mirzoga keladi“ degan ekanlar. Bu ham esa adibning adabiyotga bo‘lgan muhabbatining bir misoli desak ham bo‘ladi.

Qorli, qahraton qish kuni. Maqsud Shayxzodaning jabrdiyda yuragi urishdan to‘xtadi. Agar shoir yuragi yana bir yarim yil chidab berganida, so‘nggi yillarda olib borgan mardona ijodiy mehnatining natijasi - “Abu Rayhon Beruniy” sahna yuzini ko‘rgan, adabiy jamoatchilik 60 yillik to‘yini munosib nishonlagan, behisob muxlis va shogirdlari esa bu aziz insonni yana bir yarim



yil moaynida ko‘rish, ajoyib suhbatlarini tinglash, yozgan she‘rlarini o‘qish baxtiga muyassar bo‘lgan bo‘lardilar. Afsuski, “uch raqamli son”da yashamoqchi bo‘lgan shoir bir kam oltmishda yorug‘ dunyo bilan abadiy xayrlashdi. U bir kam oltmish yil yashadi, xolos. U hayoti va ishlari hamisha “bir kam” bo‘lganidan o‘ksinar va umr kosasining to‘la bo‘lishini orzu qilardi. Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yakunlab, bosh qahramonning quyidagi monologini yozayotganida, ko‘z yoshlari beixtiyor marjon bo‘lib to‘kilgan edi.

Xayr sizga, sho‘x yulduzlar, senga g‘amli oy!

Xayr sizga, do‘stlar, xayr, jam‘i insonlar!

Xayr senga, oh. Feruzam, qalbim singlisi!..

Dunyo, dunyo, bevafo san, bilaman seni,

Ammo senga yomon farzand emas edim-ku!

Yorug‘ kunda, baxt ayyomi, meni yod ayla.

Bitdi nafas. Yig‘lamayman. Siz ham yig‘lamang!

Aziz Qayumov Shayxzoda bilan so‘nggi uchrashuvi chog‘ida ruhiy iztirob to‘lqinlari tebranib turgan shu satrlarni eslab, ularning o‘z o‘rnida va g‘oyat ta‘sirli yozilganini aytganida, shoir taxminan bunday degan ekan: “Agarda Ulug‘bek shu paytda men ketaman, ammo mening nomim o‘chmaydi, avlodlar meni yodlayajaklar... kabi balandparvoz gaplarni aytganida, u quruq va siyqa pafos bo‘lar edi. Bu yerda esa Ulug‘bek oddiy bir inson sifatida gavdalanmoqda. U ham bir inson sifatida yashamoq istaydi va yashashga munosib. Ammo taqdir o‘zgacha hukm chiqargan. Shuning uchun u o‘z achchiq qismatini koyiydi...” Kamina Ulug‘bekning shu monologini o‘qir ekanman, Shayxzodaning o‘z ovozi, o‘zining vido so‘zlarini eshitgandek bo‘laman.

Shu kuni kechqurun O‘zbekiston televideniesining axborot dasturi o‘z ko‘rsatuvlarini mungli kuy bilan boshladi. Ulug‘ inson va shoir Shayxzodaning uzoq davom etgan og‘ir kasallikdan so‘ng vafot etganligi haqidagi xabarni suxandon yig‘lab o‘qidi.

Ertalab. Shoir Zulfiya bilan Suyima G‘anieva Shayxzodaning uyiga qora libos kiyib yetib bordilar. Sakinaxonim Shayxzodaning boshi uzra faryod chekib turardi. U ayollarning yupanch so‘zlaridan keyin bir oz o‘ziga kelgach: “Maqsud, uch kun avval bir cho‘qim osh yegim kelyapti”, - dedi. Shunda men: “Senga hozir osh botmaydi. Bir oz durust bo‘l, keyin tayyorlab beraman”, - degan edim, deya ko‘ziga yosh oldi. Bir oz tin olgach, yana so‘zladi: “Maqsud so‘nggi kunlarda Qur‘on sasini eshitgim kelyapti”, - derdi”. Sakinaxonimning bu so‘zlarini eshitgan Zulfiya opa bilan Suyimaxon dodlab yubordilar. Adibning so‘ngi so‘zlari insonning qalbini g‘ashlab qo‘yadi.



ADABIYOTLAR:

1. Bobirovich, Q. D. J. R. (2023). MAQSUD SHAYXZODA VA ABADIYATGA DAHLDORLIK. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

2. Islomovna, M. F. (2024). O ‘ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.

3. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-92).

4. Mamurova, F. (2023). MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROSI. Буллетен студентов нового Узбекистана, 1(11), 9-11.

